

**Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!**

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:35 (67200)  
2018-yil 27-avgust

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



## YURTIM YURAGI

**Bu yil O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 27 yilligi «Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!» shiori ostida keng nishonlanishini yaxshi bilasiz. Ajab emaski, Siz ham bayram kuni yaqinlaringiz bilan poytaxtimizdagi Mustaqillik maydoniga borib, eng ulug' kunni tantana qilsangiz.**

(Davomi **3**-bet da)


## Endi maktabda SHAXMAT DARS o'tiladi

«O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident Qaroriga muvofiq joriy o'quv yilidan boshlab yurtimizdagi 150 ta umumta'lim maktabida tajriba sifatida shaxmatni o'qitish tashkil qilinadi.

(Davomi **7**-bet da)



# OTAM MENING USTOZIM EDI



Rahmatilla KARIMOV,

Toshkent shahri, Uchtepa tumanidagi 4-umumta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi


O'sha vaqtlarda bu kitoblarni qiziqib o'qirdim. Ularni hech kimga ishonmasdim. Go'yo bu dunyoda mendan baxtli odam yo'qdek edi, nazarimda. Otam esa o'rni kelganda «Rahmatilla, bugun kitoblarindan nimalarni o'rganding?», deb meni savolga tutardi. Men esa o'rganganlarimni aytсам, «Qani, menga misollar bilan tushuntirib bergin-chi», deya yozganlarimni diqqat bilan kuzatardi. Oxirida esa «Yaxshi o'rganibsan, barakalla!», deya yelkamga asta qoqib qo'yardi. Bu men uchun dunyodagi eng yuksak mukofot edi.

Yillar o'tgani sari otamning turli misol va masalalarni hayotga bog'lab, osonlik bilan yechimini topishlari, tenglama va tengsizliklarning yechim yo'llarini bir necha usullarda tushuntirib berishlari meni matematika olamiga yetaklab, u bilan bir umrlik oshno qildi. Ba'zan «Rahmatilla, mana bu misolni ishlab ko'r-chi, xato berilganmi, negadir ishlasam, javobi chiqmayapti-ya», deb biror masala yoki misolni kitobdan ko'rsatar edi. Men turli formula, xossa yoki teoremlardan

foydalanib, bir amallab yechimni topardim. Natijani ko'rib chiqqan otam «Yaxshi ishlabsan» yoki «Men mana bu yerida xato qilgan ekanman-da», deb meni ruhlantirar edi. Men bundan juda xursand bo'lardim. Keyinchalik bilsam, bu meni matematika faniga qiziqtirish uchun otamning tutgan usullaridan biri bo'lgan ekan. Bu ulardan menga tillolarga almashtirib bo'lmaydigan sog'inchli esdaliklarga aylanib qoldi.

**Esimda, maktabda ertaga o'qituvchi sifatida ish boshlayman, degan kunim otam meni yoniga chaqirdilar-da, «O'g'lim, mana sen ham ustoz bo'lding. Ilohim, boshlagan ishing xayrli bo'lsin», deb oq fotiha berdilar va «Yodingda tut, maktab mo'tabar dargoh, sinf xonasi muqaddas. Unda senga tikilib o'tirgan o'quvchilar esa beg'ubor va pokiza. Hech qachon ularga xiyonat qilma. Har bir darsingga puxta tayyorlangin. Yana shuni ham yodingda tutginki, agar o'rtamiyona o'qituvchi bo'lsang, yaxshisi, boshqa kasb bilan shug'ullan. Ustozning hech qachon kasbiga yuzaki qarashga va xato qilishga haqqi yo'q», degandilar.**

**Bolalik chog'larimda ertangi kun darslariga tayyorgarlik ko'rayotgan otamning oldilaridagi matematikaga oid kitoblar, ulardagi geometrik shakllar, tasvirlar meni o'ziga butkul mahliyo qilar edi. Buni sezgan otam, «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi» unvoni sohibi Toshvoy Karimov menga turli geometrik chizmalarga boy bo'lgan albom va yana «Qiziqarli arifmetika», «Qiziqarli geometriya» kitoblarini olib kelib berdilar. Ular qariyb 55 yil yosh avlodga matematika fanidan saboq berganlar.**



ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi» unvoni bilan mukofotlandim. Shuni alohida ta'kidlashim kerakki, bu mukofotlar, eng avvalo, ota-onamga, ustozlarimga va men bilan yelkama-yelka mehnat qilib ke- layotgan kasbdoshlarimga berilgan yuksak bahodir.

qilingan. Atoqli olim S. Margelyan yoshligidan matematikaga qiziqqan. U bir o'quv yilida 8-, 9-, 10-sinflarning imtixonini topshirgan. 16 yoshida universitetning 2-bosqichiga qabul qilingan. Bir yarim yilda nomzodlik ishini tayyorlab, 20 yoshida fan doktori bo'lgan», degan qiziqarli ma'lumotlar bilan ulami yanada o'qishga qiziqtiraman. Bunday ibratli misollarni o'quvchilar katta qiziqish va maroq bilan ting- laydilar. Shu vaqtda men inson miyasi tana-

ning atigi 2 foizini tashkil etishi, uning og'irligi 1,5 kg.gacha bo'lishi, uning ham 75 foizi suvdan iborat ekanligini keltirib, u o'z ichiga kompyuter tiliga o'girilsa, 3 ming terabayt ma'lumotni sig'dira olishi mumkin ekanini, taqqoslash uchun 900 yil- lik tarixga ega Britaniya milliy arxivining hajmi 70 terabayt ekanligini keltiraman. So'ng, kishi qancha ko'p o'qigani bilan uning miyasi aslo charchamasligini aytib, bunda faqat vaqt me'yori- yu tartibga rioya qilish ke- rak ekanini tushuntiraman. Shuningdek, ilm kishilari hech ham xor bo'lmasli- gi, doimo el-yurt orasida hurmat-e'tiborli bo'lishlarini ta'kidlayman.

olishi mumkin ekanini, taqqoslash uchun 900 yil- lik tarixga ega Britaniya milliy arxivining hajmi 70 terabayt ekanligini keltiraman. So'ng, kishi qancha ko'p o'qigani bilan uning miyasi aslo charchamasligini aytib, bunda faqat vaqt me'yori- yu tartibga rioya qilish ke- rak ekanini tushuntiraman. Shuningdek, ilm kishilari hech ham xor bo'lmasli- gi, doimo el-yurt orasida hurmat-e'tiborli bo'lishlarini ta'kidlayman.

**Mana, yoshim 60 dan oshib, maktabda faoliyat yuritayotganimga ham 40 yildan ortiq vaqt o'tdi. O'rtda qolgan umrimga nazar tashlab, ichimdan mamnunlik hissini tuyaman. Yoshlarimizga esa chuqur bilim olib, o'z ustilarida tinimsiz izlanishlarini, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishlarini tilayman.**

**Sevimli yozuv- chimiz Shuhratning «Oltin zanglamas» asaridagi qahramonlarning o'zaro suhbatida «Hech bo'lmasa, bir maysaga ildiz bo'lg'in» degan ibratli fikri mening pedagogik faoliyatimda salmoqli o'rin egalladi. Doimo sinf xonasiga kirib borganimda, menga beg'ubor ko'zlari-yu pokiza qalblari bilan tikilib turgan o'quvchilarimni ko'rib, kasbinga yanada vijdo- nan yondashishga intila- man.**

Taniqli iqtisodchi olim Yor- qin Abdullayevning «Qiziqarli statistika» kitobidagi «Ibn Sino 4 yoshida Qur'onni to'la yod olgan. Aleksandr Tolstoy 6 yoshida fransuz, nemis va ingliz tillarini bil- gan. Aleksandr Griboyedov universitetga o'qishga kirib, 6 yilda 3 ta fakultetni bitirgan. Chingiz Aytmatov 5 yoshida tarjimonlik qilib, haq olgan. Gyote 9 yoshida nemis, lotin va grek tillarida she'r yozgan. Paskal 15 yoshida birinchi ilmiy ishini himoya qilgan. Ulug' kompozitor Volfgang Motsart 4 yoshida musiqa asboblari qo'shiq ayta boshlagan. Besh yoshida esa musiqaviy asar yoz- gan. Akademik L. Landau o'n yillik maktabni 13 yoshida tamomlab, 14 yoshida universitetning 2-bosqichi (tibbiyot fakulteti)ga qabul

## YURTIM YURAGI

**Yangi o'quv yilidagi birinchi darsga tayyor bo'lishni istaysizmi? Unday bo'lsa, bugun biz sizga hozirlagan Mustaqillik darsi bilan tanishing.**

Bu yil O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 27 yilligi «Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!» shiori ostida keng nishonlanishini yaxshi bilasiz. Ajab emaski, Siz ham bayram kuni yaqinlaringiz bilan poytaxtimizdagi Mustaqillik maydoniga borib, eng ulug' kunni tantana qilsangiz.

Har safar bu go'zal maskanga tashrif buyurganda, Mustaqillik va Ezgulik monumenti e'tiboringizni tortadi. Poytaxtimizdagi mazkur me'moriy-badiiy majmua Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov g'oyasi bilan bunyod etilgan. Vatanimiz Mustaqilligining ilk yillarida, aniqrog'i, 1992-yilda maydonda o'rnatilgan obida

Mustaqillik monumenti deb atalgan. Ramziy ma'nodagi yer sharida O'zbekiston Respublikasi xaritasi aks etgan. Ushbu obida jahon xaritasida mustaqil O'zbekiston mamlakati mustahkam o'rin egallaganini ifodalaydi. 2005-yil esa monument oldiga farzandini bag'riga bosib turgan o'zbek ayoli siymosi – Baxtiyor ona haykali o'rnatildi. Bundan tashqari, maydondagi ezgulik arkasi, oq poyandoz shaklidagi keng yo'lak ajoyib manzarani hosil qiladi. Yildan yilga ushbu hududda keng ko'lamdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kunda maydon ijtimoiy-siyosiy hayotimizda muhim ahamiyat kasb etishi



bilan birga, yosh avlod qalbi va ongiga istiqloq g'oyalarini, milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini yanada chuqurroq singdirishga xizmat qilmoqda. Qolaversa, ushbu

qutlug' maskan yurtimizga tashrif buyurgan mehmonlarni ham o'ziga maftun etmoqda. Aziz o'quvchim! Shoir yurtim yuragi, deya ta'rifiylan ushbu maydon haqida

ko'proq ma'lumotga ega bo'lib, ustozlaringizga istalgan vaqtda so'zlab berishingizni istardik.

Sayyora QODIROVA

## ALLA AYTGAN ONAMSAN...

**Yaqinda O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi qoshidagi «Onajonim she'riyat» to'garagining navbatdagi mashg'ulotida ishtirok etish uchun poytaxtimiz Toshkent shahriga bordim.**

Keng va ravon ko'chalar, bir-biridan muhtasham ko'priklar, yangi turarjoy binolari shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. To'garak rahbarimiz Rustam Mirvohidov barchamizni yaqinlashib kelayotgan Mustaqilligimizning 27 yilligi bilan tabriklab, Vatani, tinchlik, do'stlikni tarannum etuvchi ijod namunalarimizni eshitib ko'rdilar. Men Durдона, Nasiba, Gulnora, Shahrizoda, Mahfuza opa kabi ijodkorlarning ozod diyorimiz haqidagi she'rlarini tinglab, ularning go'zal tashbehar-u o'xshatish va ta'rifiylaridan ta'sirlandim, she'riyat haqidagi tasavvurlarim yanada boyidi. Mashg'ulotdan so'ng, «Vatan sog'inchi» she'rini shoir Axtamqul Karimovga o'qib berib, fikrlarini bilish maqsadida «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga keldim. Ijod mahsulim ma'qul bo'ldi. Men tahririyatdagi muxlislariga bo'lgan iliq munosabatni ko'rib, xursand bo'ldim. Kelajakda a'lo baholarga o'qib, oliy o'quv yurtiga kirish uchun ko'p o'qish kerakligini angladim.

Fursatdan foydalanib, barcha tengdoshlarimni Mustaqillik bayrami bilan tabriklayman.

**Mashhura XO'JAAHMADXONOVA, Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi Is'hoqxon To'ra Ibrat maktabining 11-sinf o'quvchisi**



**Bugungi dorilamon kunlarga biz keksalar, buva-buvilarimizning duolari bilan yetganmiz. Bugun xonadonlarimiz tinch, farishtali. Ular turli hikoyalari va xotiralarini so'zlab berib, bizga har dam Vatani Muqaddas ekanligini, mustaqillikning ahamiyatini anglatib borishadi. Shukur qilishni, yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishni o'rgatishadi.**

**So'z isboti bilan go'zal deganlaridek, tengdoshlarimning e'tiboriga Aktam bobo va Maryamxon momo bilan qilgan suhbatimni havola qilmoqchiman. Ular bolalik xotiralarini, boshdan kechirganlarini so'zlab berishar ekan, mustaqil yurtning baxtiyor bolasi ekaningam amin bo'ldim.**

## VATANNI SEV, TUPROG'INI O'P

**Aktamxon bobo AHADOV, 68 yoshda:**

– Bolaligimizda hozirgidek shart-sharoit ham, to'kin-sochinlik ham bo'lgan emas. Bugun esa nafaqat Siz yoshlarga, balki biz keksalarga ham katta e'tibor berilmoqda. Yaqinda davlatimiz tomonidan berilgan bepul yo'llanma bilan Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi «Tovoqsoy» sihatgohi, Nuroniylar choyxonasi, «Chimyon» aholi dam olish maskanida dam olib qaytdim. Men bugun mustaqil O'zbekistonda farzandlarim va nabiralari qurshovida osoyishta umr kechirayotganimdan baxtliman. Siz aziz yoshlarga esa baxt-omad tilab, yaxshi hayot kechirishingizni tilayman.

**Maryamxon momo ASHUROVA, 63 yoshda:**

– Men boshlang'ich sinfni qishloqdagi maktabda o'qi-

ganman. 5-sinfga o'tgach esa uzoq qishloqdagi maktabga qatnab o'qiy boshladim. U vaqtlarda yengil avtomobillar



qayoqda deysiz! Goh traktorga, goh ot aravaga osilib, darsga qatnar edik. Shu taxlit maktabni qiyinchilik bilan bitirganman.

Shukurki, dorilamon kunlarda, yaxshi zamonda yasha-

yapmiz. Hozir 30 nafar nevaram, 3 ta evaram bor. Nevaralarimning barchasi tirishqoq, maktab va oliygohlarda a'lo baholarga o'qimoqda. Farzandlarimiz uchun yangi, zamonaviy maktablar qurilyapti. Shu bois, barcha bolalar faxr bilan yashashlarini, yurtimizga munosib bo'lishlarini istardim.

Bobo-buvijonlarimizning ana shunday samimiy bildirgan fikrlari hayot shiorimizga aylansin. To'g'ri xulosa chiqarib, Vatani ravnaqiga o'z hissamizni qo'shaylik!

Shoir Oybek domla aytganidek, «Vatanni sev, tuprog'ini o'p, har qarichi muqaddas bizga»...

**Aziza AXTAMOVA, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 1-DIUM o'quvchisi**

Muhabbati tengsiz Vatan,  
tuproq'imga gullayapti...

Tong  
yulduzi

31-avgust - Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni

## MA'RIFATPARVAR IJODKOR

Qatag'on qurbonlari haqida so'z ketganida, turfa taqdir-lar-u bevaqt xazon bo'lgan umrlar ko'z oldingizga keladi. Sevimli adibimiz A. Qodiriy, otashqalb shoir Cho'lpon, Abdurauf Fitrat singari asl o'zbek o'g'lonlarining ayanchli qismlari barchamizni chuqur o'yg'a toldiradi. Bugun qatag'onga uchragan buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat haqida to'xtalmoqchimiz.

Abdurauf  
FITRAT



Manbalarga ko'ra, Abdurauf Fitrat 1884-yil Buxoro shahrida tavallud topgan. Fitrat uning taxallusi bo'lib, «tug'ma iste'dod» degan ma'no-ni anglatadi. Bobomizning otasi o'qimishli, onasi Bibijon ham adabiyotdan boxabar ayol bo'lgan. U oilasining to'ng'ich farzandi bo'lib, ilk tarbiyasi diniy maktabda, so'ngra Mir Arab madrasasida tahsil oladi. Fors hamda o'zbek tillarini mukammal bilgan shoir adabiyotning barcha janrida qalam tebratadi. O'sha davrning taniqli o'quv dargohlarida tahsil oladi. Fitrat Buxoro, Samarqand, Toshkent universitet-larida yoshlarga saboq beradi, O'zbekiston

davlat ilmiy-tadqiqot institutida, Til va adabiyot institutida, O'zbekiston Fanlar qo'mitasida ishlaydi. O'sha davrlarda she'rlar, pyesalar, ilmiy asarlar yozadi. Uning millatparvarligi Sho'ro hukumatiga yoqmaydi. U ham Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Botu, Usmon Nosir singari erkarparvar insonlar qatorida qamoqqa olinadi. 1937-yilning aprel oyida hibsga olingan Fitrat 1938-yilning 4-oktabrida otib tashlangan.

Ko'pqirrali va sermahsul ijodkor Fitrat erkin, ozod va farovon hayot sari chorlaydigan she'rlari bilan xalqimiz orasida nom qozonadi. Uning «Biroz kull!», «Yana yondim», «Ishqimning tarixi», «Qor» singari she'rlari o'zbek o'quvchilari qalbidan mustahkam o'rin egallaydi. Afsuski, uning talaygina badiiy asarlari, pyesalari bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramay, ijodkorning she'rlari hali-hanuz yoshlar tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

Poytaxtimizda yosh avlodni qatag'on qurbonlarining hayot yo'li bilan yaqindan tanishtirish, ularni ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash maqsadida «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi barpo etilgan. Ushbu majmuaga tashrif buyursangiz, xalqimizning qora kunlari deya e'tirof etiladigan «Qatag'on yillari»ga oid ko'plab ma'lumotlar bilan tanishasiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

## BOSHIM KO'KKA YETDI

Aziz tengdoshim! Sizga aytadigan quvonchli yangiligim bor. Ta'tilning so'nggi kunlarida orzularimdan biri ushalib, «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatida mehmon bo'ldim.

Olis Qashqadaryo viloyatidan poytaxtga atayin shu maqsadda kelib, ijodkorlar bilan uchrashib, ulardan ko'pgina maslahatlar oldim. Eng qizig'i, tahririyatga kelgan kunim «Tong yulduzi»ning yap-yangi soni chop etilgan ekan. Unda mening «Opam soxta g'oliblikni tanlamadi» deb nomlangan maqolamni ko'rib, quvonib ketdim.

Sevimli gazetamni 5-sinfidan buyon muntazam o'qib boraman. Unda ilk she'rim chop etilganida, quvonchdan ko'zimga yosh kelgandi. Bugunga qadar erishgan yutuqlarimning sababchisi ham «Tong yulduzi»dir. Kelajakda yetuk jurnalist bo'lish niyatidaman. Buni bilgan tahririyat xodimlari menga gazetaning faol yosh muxbiri vazifasini topshirdi. Bundan boshim ko'kka yetdi. Safardan katta maqsadlar, ulkan taassurotlar olib, uyga qaytdim.


Laylo ESONMURODOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi  
5-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Men O'zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovni sermazmun suhbatlarini tinglash baxtiga musharraf bo'lmaganman. Ammo adabiyotimiz darg'alaridan sanalgan olimning hayoti, ibratli umr yo'li haqida taniqli zamondoshlari xotiralarini tinglashga musharraf bo'layapman.

## USTOZNI XOTIRLAB...

Ilk bor adib ijodi bilan tanishuvim adabiyot darsligimizdagi «O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» degan risolasi bo'ldi. Undagi Vatanni



O'zbekiston Qahramoni,  
adabiyotshunos olim  
Ozod Sharafiddinov

sevishdek oliy baxtni biz o'quvchilar shuuriga singdirishga yo'naltirilgan falsafiy mulohazalar, Vatanning har bir qarich tuprog'ini e'zozlash haqida avlodlarga o'rmaq bo'lari fikrlari har bir kitobxonni vatanparvarlikka undashiga inonganman. Ushbu asar ustoz nomini o'zim uchun kashf etishimga sababchi bo'lgan. Shu bois, adibning hayoti va ijodi bilan yaqindan qiziq boshladim. Bilishimcha, domlaning yoshlik yillarida sevib o'qigan asarlaridan biri Mark Tvenning «Tom Soyerning boshidan kechirganlari» romani bo'lgan ekan.

Ba'zi xotiralarga ko'ra domla Tomga o'xshashni orzu qilib, uning xatti-harakatlariga taqlid ham qilgan ekanlar. Ozod Sharafiddinov kitobni shunday o'qimas, undagi har bir so'zidan ma'no topishga, undagi ma'nolarni uqishga intilar ekan. Ularning tarjimonlik san'atlariga ham qoyil qolmaslikning iloji yo'q. Bir gal tish og'rig'i domlani bezovta qilsa ham Frans Kafkaning asarini tarjima qilavergan ekanlar.

Kuni kecha «Kitobxon shou»ning saralash bosqichida qatnashdim. Shunda biz kitobxonlarga Lev Tolstoyning «Tavba va tazarru» romanini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan, deyilgan savol berildi. Kimdir Ibrohim G'afurov dedi, yana kimdir Ozod Sharafiddinov. Lekin hakamlar hay'ati negadir javobdan qoniqmay, menga yuzlanishdi. Men Ozod Sharafiddinov degan javob to'g'ri, biroq domla asarni «Iqromoma» deb tarjima qilganlar dedim. Hakamlar javobni shunday to'liq berish kerakligini ta'kidlashdi.

Domla qaysi bir viloyatga borsa, qaysi bir davlatga borsa qo'ni-qo'njini to'ldirib kitob xarid qilarkanlar. Shu bois, o'limlari oldidan mening xazinam kitoblarimni ko'z qorachig'idek asranglar, deb vasiyat qilgan ekanlar.

Aziz o'quvchi! Biz xalqimiz qalbidan joy olgan umrining oxirigacha ijod qilishdan zavqlangan, tanasidagi og'riqlarga jasorat bilan qarshi tura olgan sevimli yozuvchimiz Ozod Sharafiddinov haqida ozgina so'z yuritdik. Siz qaysi adiblarning ibratli hayot yo'llari haqida eshitganlaringiz bor? Bu haqda, albat-ta, «Tong yulduzi»ga yozib yuboring.

Ibrohim RIXSIBOYEV,  
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi  
1-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## ENG ULUG' NE'MAT

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi davlat Mustaqilligining yigirma yetti yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risidagi Qarori hamda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirining 2167-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida Uchquduq tuman xalq ta'limi bo'limining chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va barcha ta'lim muassasalariga taqdim etildi.

«Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!» shiori ostida eng katta va bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrash, millatlararo totuvlikni mustahkamlash maqsadida keng jamoatchilik o'rtasida «O'zbekiston dunyo nigohida», «Vatan uchun yashaylik!», «Qudratimiz – birlik va hamjihatlikda» shiori ostida targ'ibot-tashviqot tadbirlari tashkil etildi. Shuningdek, tumandagi ta'lim muassasalarida Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan «Mustaqillik darslari», «Ertalabki saflanish» ochiq darslarni o'tkazish yuzasidan tavsiyalar hamda «Mustaqillik bayramini tashkil etish va o'tkazish» bo'yicha namunaviy ssenariylar ishlab chiqildi.

Qolaversa, joriy yilning 25-avgustidan 30-avgustigacha «Istiqlolimizning yorqin ko'zgu-si» mavzusida Mustaqillik bayramining 27 yilligiga bag'ishlab ko'rgazmalar tashkil etildi. 3-sentabrdan 8-sentabrgacha ta'lim muassasalarida «Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!» degan g'oya mazmun-mohiyatini o'quvchi-yoshlarga tushuntirishga qaratilgan jonli muloqotlar, davra suhbatlari, adabiy-badiiy kechalar, madaniy tadbirlar va insholar tanlovi o'tkazish rejalashtirilgan.

Zebo RAHIMOVA,  
Uchquduq tuman xalq ta'limi bo'limi sho'ba mutaxassisi

# KITOB BIZGA HAMROH

Men har yili yozda Toshkentdagi «Botanika» oromgohida dam olaman. Bu yil ham shu oromgohda ta'til kunlarim juda qiziqarli o'tdi. U yerda ko'p tadbirlar tashkillashtirilib, men «Yosh kitobxon» tanlovida 1-o'rinni egalladim. Va shu vaqtgacha Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Dilshod Rajab kabi shoir va yozuvchilarning ko'p kitoblarini o'qiganimdan mamnun bo'ldim. Shuningdek, devoriy gazeta tayyorlashda faol ishtirok etdim. Tarbiyachi opamiz Ro'zigul Ibragimova bizga odob-axloq, do'stlikka oid ko'pgina rivoyat-u hikoyalar aytib berdilar. Durdona, Diyora va Malika kabi yangi dugonalar ham orttirdim.



Nodira TO'LAGANOVA, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 57-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Hurmatli «Tong yulduzi» gazetasining ijodiy xodimlari! Bu yilgi yozgi ta'tilda ham sevimli nashrimning har bir sonini o'qib bordim.

«Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi haqida o'qishim bilan unda qatnashish istagi paydo bo'ldi. Chunki kitoblar hayotimdagi eng yaqin do'stlarimdir. Ularsiz o'tgan kunlarimni kun safiga qo'shmayman.

5 yoshimdan beri kitoblar bilan birgaman. Ular meni doim kelajakka ruhlantiradi. Biroq adibning kitobini qo'limga olar ekanman, ilk sahifasini ochishim bilan oq boshqa olamga tushib qolganday bo'laman. So'nggi sahifani yopmagunimcha, bu saltanatdan uzoqlasha olmayman.

Kitob - ruhingizni ravshanlashtiruvchi shunday kuchki, uni o'qiyotganingizda barcha muammolaringiz birdan unut bo'lib, ko'nglingiz yorishadi. Kitob - bilimning kaliti, yo'lchirog'idir. Shunday ekan, kitoblarday beminnat do'stimizdan hech qachon voz kechmaylik.

Ayni damda maktabimiz kutubxonasiga Sirdaryo viloyat Axborot-resurs markaziga va Sirdaryo viloyati Alisher Navoiy nomidagi kutubxonasiga a'zoman.

Nasib bo'lsa, ushbu tanlovda g'olib bo'lib, kitoblarga bo'lgan mehrimni yana bir bor namoyish etmoqchiman.



Navro'za TURSUNOVA, Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 6-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## Lesson 35

## INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

### INDEPENDENT UZBEKISTAN



Uzbekistan prepares to celebrate 27th anniversary of independence. September 1 - Independence Day - is a great historic date of our country's independence, appearance of a new, independent and sovereign state - the Republic of Uzbekistan on the world map, embodiment of the centuries - old dream and aspiration of our people, which we always enthusiastically note as the greatest and the most valuable holiday.

Uzbekistan became a part of the Russian Empire in the 19th century, when it began to expand to Central Asia. Not only Uzbekistan but also our some neighbor countries became a part of the Soviet Union. Countries within the Soviet Union one by one started to Declare their independence, authorities of Uzbekistan did it on August 31, 1991. This event laid foundation for celebration of Independence Day.

Dinora ABDULLAJONOVA

### ARE THESE SENTENCES TRUE OR FALSE?

1. Uzbekistan was the second largest country of the Soviet Union -
2. Uzbekistan doesn't share its border with Russia -
3. The country is rich in mineral resources -
4. Residents are happy to share hospitality with their visitors -
5. Russian is the language of international communication -

### BRAINSTORM

Where is Uzbekistan situated?  
 What countries does it border on?  
 When did Uzbekistan become an independent state?  
 What are the symbols of the state?

Ma'mura G'ULOMOVA

### «THE MEMORY OF REPRESSION'S SACRIFICES»

When Uzbekistan was resolved as an independent Republic, one of the righteous work which was carried out by the first president I. A. Karimov to perpetuate memory of guises who sacrificed innocently in the Soviet - colony time, who were repressed as a «nation's enemy» in 30-50 years of previous century.

The museum was opened ceremonially in the «Retaining day of repression's sacrifices» in 2000 on the 31st of August.

Near the building there was a terrace which was risen by 28 inwrought columns. The general area was 784m<sup>2</sup>.

The building was built based on Uzbek national traditions. First exposition of museum consisted of 6 parts. While the first president I.A.Karimov was visiting this museum in 2007 on 31st of August, it was talked about improvement of activity this museum, to learn deeper the history of repression's sacrifices and their bitter fate, reproduction museum's expositions and additionally to build one building. As a

result of this decree, there were great changes in museum. The construction of restored and enlarged museum consists of 3 halls, it is surrounded



with tracery, inwrought terrace. 42 national ornaments were quarried from 4 sides of terrace, the height of and half 5 meters columns rise them. The area of building's exposition is 640 m<sup>2</sup>, cellar is 1568 m<sup>2</sup>. Museum's exposition consists of 10 parts.

From internet materials Sarvinoz NAZAROVA, the student of Uzbek State World Languages University

### PARTS OF SPEECH

Read the words and tick the suitable parts of speech.

Word	Noun	Verb	Adjective	Adverb	Number
Accomplish		*			
Keen					
Obtain					
Talk					
Seldom					
Second					
Wail					

Gulchehra UBAYDULLAYEVA

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,  
Qiyosingni topmadim aslo.  
Shoirlar bor o'z yurtin butun,  
Olam aro atagan tanho!  
Abdulla.ORIPOV

Tong  
yulduzi

Bahrom AKBAROV

## NURLI MAKONIM

Vatan – onajonim,  
Dilda iymonim.  
Tandirdan uzilgan,  
Bo'rsildoq nonim.  
Siyrating yurakka,  
Chizib olganman.  
Qushlaring kuyiga,  
Quloq solganman.  
Tog'laring boshida,  
Oqargan qalpoq.  
Qadoq qo'llaringdek,  
Sehri, yumshoq.  
Bag'ringda o'sayapman,  
Shodlikka to'lib.  
Ilm olmoqdaman,  
Alisher bo'lib.  
Jaloliddin bobom,  
Sha'ni qonimda.  
Temurbek bobomning,  
Shoni yodimda.  
Shiroqdek yurtimga,  
Sodiq bo'laman.  
Hurriyat farzandi,  
Jasur bolaman.  
Ko'zim qorachig'i –  
Jannatmakonim.  
Quyoshdek nur sochgin,  
O'zbekistonim!



## BIR DO'STIM BOR

Bir do'stim bor, yurganimda menga yo'ldosh,  
Yiqilsam gar, suyab qo'yar bo'lib dildosh.  
Ko'krigidan itarganda qarindoshlar,  
Bir do'stim bor, tug'ishgandan tutinganim,  
Menga qarab yig'lab turar ko'zida yosh.  
Bir do'stim bor, mening onam munis onam,  
Bemor bo'lsam tepamdagi parvonam.  
Bir do'stim bor, duo qilib turar har dam,  
U oqsoqol qo'lda aso, mening otam.  
Bir do'stim bor, menga ta'lim berib qo'ygan,  
Ayamasdan o'z ilmini quyub qo'ygan.  
Otamdayin-onamdayin yaxshi ko'rgan,  
Muallimim ustozlarim bilim bergan.  
Bir do'stim bor, yaratganim u Ollohim,  
Ko'rar ko'zim rizq-ro'zimni berib qo'ygan.  
Bir do'stim bor, bu Yurtboshim ham yo'ldoshim,  
Ilm ol, deb kitoblarni berib qo'ygan.

Abbos ZIYODULLAYEV,  
Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi  
50-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## BAXTIM SENDADIR

Daryolardan mavjlanib mening ko'nglim oqyapti,  
Quyoshingdan nur emib dilim otash yoqyapti.  
Oqshomlari oymoma sochimga gul taqyapti,  
Quchog'ingda ulg'ayib qalbim durday balqyapti,  
Jamoligandan ruhlanib orzum ko'kka qalqyapti.

Zabt etarman bir kuni tafakkurning tog'ini,  
Gulga burkagum albat she'riyatning bog'ini.  
Zoye ketkizmam aslo yoshlikning gul chog'ini,  
Asragayman jon kabi har novda yaprog'ini,  
Ko'zga surtgum avaylab Vatanim tuprog'ini.

Yaratganga ming shukur shunday elda tug'ildim,  
Nazm chamani ichra nihol bo'lib suqildim.  
Orzular osmonida qush kabi parvoz qildim,  
Baxtim sendadir, Vatan, angladim, aziz bildim,  
Yuragingma muhrlab noming bayroqdek ildim.

Osmono'par tog'laring g'ururimga o'xshaydi,  
Sharqiroq soylaringni ko'nglim har dam qo'msaydi.  
Yulduzlar yerga tushib poyandozlar to'shaydi,  
Bunda har bir farzanding elim debon yashaydi,  
Shavkat bobom sarbondir yorug' yo'lga boshlaydi.

Nafisa PARDAYEVA,  
Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi  
36-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Murod TILLAYEV

## «TEMURBEKLAR MAKTABI»

(Davomi. Boshi o'tgan  
sonlarda)

## TURKUMIDAN

### TOPILMA

Erkin maktabdan qaytganda, vaqti-vaqti bilan hamma ishga ketganida otasining kiyim javonini to'riga osib qo'yilgan ofitserlik kitelini, furajkasini kiyib, o'zini oynaga solishni yaxshi ko'rardi. To'g'ri, kitel unga qopday turar, furajka ham orqaga bostirib kiymasa ko'zini to'sib qolardi. Lekin ko'zguda kichkina mayorni ko'rib, o'zicha zavq kelardi. Ba'zan, hatto atrofidagi ko'rinmas askarlarga buyruq ham berib qo'yardi.

Bu gal endi kitelni olmoqchi bo'lib turganida, javonning eng to'ridagi dokaga o'rab osib qo'yilgan kiyim diqqatini tortdi. «Ilgari nega uni ko'magan ekanman?» deb hayron bo'ldi. Bir amallab uni ilgagidan chiqarib oldi. Qarasa, eskitirib, rangi o'chib ketgan, urush davri haqidagi kinolarda askarlar egnida ko'rgan gimnastyorka. Unga bir qancha orden-medallar qadalgan. Negadir ularning ikkitasi bir-biriga o'xshab ketarkan. Erkin gimnastyorkani kiyayotganida dimog'iga ter, tuproq hidi urildi. O'zini oynaga solib, ko'ksidagi orden-medallarni ko'rib, gerdaiyb qo'ydi. So'ng, avaylab ustiga dokani yopib, gimnastyorkani yana asta joyiga ildi.

Kechga tomon otasi ko'chadan kelishi bilan:

– Dada, dada! Kiyim shkafingizning eng to'rida osib qo'yilgan, orden-medallar to'la kiyim kimniki? – deb so'radi.  
Otasi erinmay xonaga kirib, haligi gimnastyorkani olib:  
– Shumi? – deb so'radi.  
– Ha, shu! – hovliqib javob berdi Erkin.  
– Bu rahmatlik bobongning gimnastyorkasi.  
– Bobom ham sizga o'xshab ofitser bo'lganmilar?  
– Yo'q, o'ziga qolsa ofitser bo'lardi, lekin ota-onalari rozi bo'lishmagan.  
– Nega?  
– Chunki ularning boshqa o'g'illari urushda o'lgan-da.

Faqat birgina bobong sog'-salomat qaytgan.  
– Orden-medallarni ushlab ko'rsam maylimi?  
– Mayli, – deb otasi miyig'ida kulib qo'ydi.  
Erkin har bir orden-medalni ushlab, siypab chiqdi. So'ng, yonma-yon qadalgan bir-biriga o'xshash ikkita ordenni ko'rsatib so'radi:  
– Nega bular bir-biriga o'xshash?  
– Chunki bular ikkinchi va uchinchi darajali «Jangovar Shuhrat» ordenlari.

– Birinchi darajalisi qani?  
– Men-da! – hazil qildi Shuhrat aka, so'ng qiziquvchan o'g'luga tushuntirdi:  
– Bobong ordenning birinchi darajalisini olishga ulgur-magan, urush tugab qolgan. Shuning uchun u mening otimni Shuhrat deb qo'ygan. Ordenning har uchala darajasi olgan askarlar «Qahramon» unvonini olganlarga tenglashtirilgan. Lekin bobong har qanday qahramondan ham qolishmasdi.

– Faqat men bobomni yaxshi eslay olmayman-da, – dedi afsus bilan Erkin.

– Xullas, bobongning orzusini men amalga oshirdim. Arkang esa mening ishimni davom ettirayapti. Bobongning qahramonliklaridan gapirib beraymi?

– Mayli, – deb Erkin otasining hikoyasiga diqqat bilan quloq tutdi.

– Bobong razvedka rotasida xizmat qilgan. Bir kuni qor gupillab yog'ib turganida, yarim kechasi sheriklari bilan razvedkaga chiqibdi. Dushmanning pozitsiyasini aylanib chiqib, qancha to'pi, pulemyoti, tanki borligini ko'rib olibdi. Ularning okopidan xiyol uzoqlashganidan keyin himoya chizig'i sxemasini, artileriyasining joylashuvini qog'ozga tushiribdi. Shu yerda

bexosdan avtomatini unutilib qoldiribdi.

Rotaga qaytib kelgach, komandiri:

– Avtomating qani? – deb so'rabdi.

Bobong yakka o'zi yana o'sha joyga emaklab borib, avtomatni olib qaytibdi.

Boshqa safar razvedkaga borishganida aloqa simini tortib yurgan fashist aloqachisini ko'rib qolibdi. Shartta uni qurolsizlantirib, asirga olib, polkka qaytibdi. Axir aloqachi o'z qismning butun sir-asrorini biladi-da. Chunki u kerak bo'lsa generalning blindajiga ham sim tortadi.

– Blindaj nima?

– Yer ostidagi qarorgoh, uy.

– Dada, endi o'zingizning qahramonliklaringizni ham gapirib bering. Axir Afg'onistondagi urushda qatnashgansiz-ku.

– E, qo'y, u davrlarni esimga solma, bolam. Ixtiyorim o'zimdagi bo'lganida edi, ikki dunyoda ham birovning yurtiga qurol kirmasdim.

Erkin otasining yarasini yangilaganini tushunib, jim bo'lib qoldi...

(Davomi bor)

## VATAN BU – O'ZBEKISTON!

Vatan – tug'ilgan joying,  
Vatan – ona tuprog'ing,  
Vatan – mahalla ko'ying,  
Vatan – jonajon uying,  
Vatan – ota-bobolar,  
Vatan – ko'zi qarolar,  
Vatan – eng go'zal bo'ston,  
Vatan – bu O'zbekiston!

Gavharbegim XOLMATJONOVA,  
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi  
3-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## O'ZING BAXTIMSAN AZAL

Yurtim yurakdan jo'shib,  
Istiqloldan so'ylayman.  
Qaynoq mehrimni qo'shib,  
Vatanimni kuylayman.

O'zbekiston – ona yurt,  
O'zing baxtimsan azal.  
Onam kabi mehribon,  
Munisamsan har mahal.

She'rim kuy bo'lib oqar,  
Bulbul kabi sayrayman.  
Rayhon yanglig' sochilib,  
Yurt bag'rida yayrayman.

Umida SULAYMONOVA,  
Navoiy viloyati, Konimex  
tumanidagi 2-akademik litsey  
o'quvchisi



# SARALAR SARALANMOQDA

**Xabaringiz bor, shu kunlarda Indoneziyaning Jakarta va Palembang shaharlarida to'rt yillikning yirik musobaqasi – XVIII Osiyo o'yinlari bo'lib o'tmoqda. Quvonarlisi, ushbu nufuzli sport bayramida o'zbek atletlari ham munosib ishtirok etib, medallar shodasini qo'lga kiritmoqda.**

Ayniqsa, yurtdoshlarimiz erkin va yunon-rum kurashi, ushu, taekvando, akademik eshak eshish, velopoyga, tennis, sport gimnastikasi, og'ir atletika kabi sport turlarida yuksak natijalar qayd etib, barchamizga olam-olam quvonch ulashmoqda. Qolaversa, bu galgi bellashuvlarda ushu ustalarimiz Osiyo o'yinlarida ilk bor medalga sazovor bo'ldi. Keskin va murosasiz bahslarda Darya Latisheva barcha raqibalariga munosib qarshilik ko'rsatib, yakunda shohspaning ikkinchi pog'onasidan joy egalladi. Uning betakror va o'ziga xos chiqishlari muxlis-u mutaxassislar olqishiga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, taekvando ustalarimiz ham bu yil qit'a o'yinlari tarixidagi eng yaxshi natijasini qayd etdi. Bundan to'rt yil avval finalga qadar yetib borib, yakunda kumush medalni qo'lga kiritgan Nikita Rafalovich Indoneziyadagi bellashuvlarda barcha raqiblarini dog'da qoldirib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Ayniqsa, uning taekvando Vatani bo'lmish Janubiy Koreya vakili bilan o'tgan hal qiluvchi bahsi o'ta murosasiz tarzda kechdi.



Yakunda esa baribir sportchimizning qo'li baland keldi. Shuningdek, yunon-rum va erkin kurashchilarimiz ham gilamda munosib bel olishib, terma jamoamiz hisobiga bir nechta medallarni qo'shib qo'ydi.

Futbol bo'yicha O'zbekiston olimpiya terma jamoasi ham musobaqada muvaffaqiyatli odimlamoqda. E'tiborlisi, yosh futbolchilarimiz guruhdagi barcha uchrashuvni g'alaba bilan yakunlab, o'z darvozidan birorta ham top olib chiqmadi. O'tgan hafta Ravshan Haydarov shogirdlari nimchorak finalda Gongkong terma jamoasini yirik 3:0 hisobida taslim etib, chorak finalga yo'l oldi. Ushbu bosqichda futbolchilarimizga Janubiy koreyaliklar raqib bo'ladi.

Yettinchi kungi bahslar yakuniga ko'ra, o'zbekistonlik atletlar jami 5 oltin, 10 kumush hamda 7 bronza medal jang'arib, norasmiy jadvalda 10-o'rinni egallab turibdi.

Sportchilarimizga navbatdagi bellashuvlarda omad va zafarlar tilaymiz.

Sa'dullo TURSINOV



(Davomi. Boshi 1-betda)

## Endi maktabda SHAXMAT DARSINI o'tiladi

Manbalarda keltirilishi-cha, Abulfath Ahmad ibn Sijziy o'zining «Shatranj» kitobida 819-yil Xurosonda o'tkazilgan birinchi shaxmat musobaqasi va unda g'olib chiqqan Markaziy osiyolik mashhur shatranjchi Abu Bakr as-Suliy haqida yozib qoldirgan. As-Suliy ko'plab shaxmat voqealariga qahramon bo'lib kirgan, shatranj ish-qibozlariga ustozlik qilgan ekan. Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston», Alisher Navoiyning «Majolis un nafois», «Lison ut tayr», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» va boshqalarning tarixiy asarlarida shaxmatga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilganligi ushbu sport turi qadimdan O'zbekistonda taraqqiy etganligidan darak beradi.



Esimda, bolaligim o'tgan poytaxtimizning Olmazor tumanidagi «Nozimaxonim 5-tor ko'chasi»da ko'plab shaxmat havaskorlari yillar davomida ko'chamizga fayz bag'ishlab, bo'sh vaqtlarida dona surishardi. Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Omonulla Madayev, Yormat Tojiyev kabi yetuk adabiyotshunos, shoir va tilshunos olimlar ham shaxmat bilan muntazam shug'ullanganliklari ma'lum. Anatoliy Karpov, Georgiy A'zamov, Aleksey Barsov, Saidali Yo'ldoshev, Sergey Zagrebniy, Marat Jumayev kabi shaxmat ustalarining nomini o'sha paytlarda eshitganmiz.

Hozir ham mamlakatimizda bu sport turiga bo'lgan qiziqish aslo susaygani yo'q. Rustam Qosimjonov Osiyoda birinchi, jahonning esa 17-chempioni deb tan olindi. Yoshlarimiz o'rtasida ham ko'plab jahon va Osiyo chempionlari yetishib chiqmoqda. Nodirbek Abdusattorov, Nodirbek Yoqubboyev, Javohir va Islombek Sindorov, Shamsiddin Vohidov, Saidakbar Saidvaliyev kabi yosh shaxmat yulduzlari ularga bildirilayotgan ishonchni oqlash uchun astoydil harakat qilishmoqda. Ular tomonidan qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlar barchamizga faxr-iftixor bag'ishlaydi.

Tajriba asosida shaxmat darslari o'tiladigan maktablar orasida poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 157-umumta'lim maktabi ham bor. Chunki bu ta'lim muassasasida o'quvchilarning shaxmatga bo'lgan qiziqishi yuqori. Murabbiy Maqsuda Qayumovaning bu sport turi rivoji bo'yicha olib borayotgan ishlari tahlil qilinib, darslar tashkil etilishi bo'yicha tavsiyanomalar berildi.

– Maktabimiz shaxmat darslari o'tiladigan ta'lim maskani sifatida tanlab olingani quvonchli voqea bo'ldi, – deydi maktab rahbari Mu-hayyo Boymatova. – O'quvchilarimizning aksariyati shaxmatni sevib o'ynaydi. 5-«A» sinfidan Sohib Toirov hamda Abduqodir Abduqodirov, 8-«B» sinfidan Saidahmad Zokirov, Saidkamol Komilov kabi o'quvchilar tuman musobaqalarida g'olib bo'lib kelishmoqda.

Prezidentimiz qaroriga ko'ra, yangi o'quv yilidan boshlab 1-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan sinflarda haftasiga bir soatdan darslar o'tilishi ko'zda tutilmoqda. Buning uchun esa shaxmat doskalari o'rnatilgan alohida sinf xonalari tashkil qilinadi.

– Maktabimizda shaxmat darslari tashkil etilganini eshitib, do'stlarim bilan juda quvondik. Bu e'tibor ushbu sport turiga bo'lgan qiziqishimni yanada orttiradi, – deydi Saidkamol. – Avvallari to'garakda qolib shug'ullangan bo'lsam, endi shaxmat haqidagi nazariy bilimlarimni ham oshirishga harakat qilaman.

Yangi o'quv yili arafasida qabul qilingan ushbu qaror kelajakda o'zbekistonlik yoshlar orasidan ko'plab jahon va Olimpiya o'yinlari chempionlari yetishib chiqishiga zamin yaratishi, shubhasiz.

Nodira NAZAROVA

